

YUQORI MARRALARNI KO'ZLAB

Muhtaram Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan islohotlar tufayli iqtisodiyotning barqaror o'sish suratlari ta'minlanmoqda. Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasining 2015-yil aprel-may oylarida mamlakatimizda bo'lgan missiyasi boshlig'ining bayonotida "O'zbekiston iqtisodiyoti ... murakkab tashqi sharoitda ham o'z barqarorligini namoyon etmoqda. ... 2015-yilda iqtisodiy o'sish, kutilganidek, yuqori bo'ladi. Bunga yaqinda qabul qilingan sanoat va infratuzilmani modernizatsiya qilish, ... xususiylashtirish va korporativ boshqaruv dasturlari samarasida erishiladi", deb qayd etildi.

Joriy yil birinchi yarim yillik yakunlari bo'yicha mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining o'sishi 8,1 foizni tashkil etdi, sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi ham 8,1 foizga o'sdi. Eksport hajmlarining 7,4 foizga o'sishi va tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosini ta'minlandi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlari 13,5 foizga, chakana tovar aylanmasi 14,8 foizga va xizmatlarning 13,1 foizga o'sishini ta'minladi. 441,8 mingta yangi ish o'rni tashkil etildi. Investitsiyalar hajmi 9,8 foizga, shu jumladan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlar 10,9 foizga o'sishini ta'minlandi. Investitsiya dasturi doirasida 63 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish tugallandi. 1866 ta ishlab chiqarish obyekti foydalanishga topshirildi. Mahalliyashtirilgan mahsulotlarning 585 ta yangi turini ishlab chiqarish o'zlashtirildi.

Amalga oshirilayotgan ishlarda bank-moliya tizimining hissasi muhim ahamiyatga ega. Ushbu jarayonlarda respublikamizda yetakchi moliyaviy muassasalardan biri hisoblangan «Asaka» aksiyadorlik tijorat banki ham faol ishtirok etmoqda.


Ayni paytda «Asaka» bank tomonidan investitsion jozibadorlikni oshirish, yuqori likvidlilik va barqarorlikni, asosiy ko'rsatkichlarning ildam o'sishini ta'minlash va ularni jahon standartlari talablari darajasiga yetkazish orqali raqobatbardosh, ichki bozor va eksportga mos mahsulotlar ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan mijozlarga hamda xorijiy hamkorlarga sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish yo'lida faol ishlar olib borilmoqda. Bank faoliyatiga xalqaro reyting agentliklari tomonidan berilgan yuqori reyting baholari shundan dalolat beradi. Jumladan, jahonning yetakchi va nufuzli xalqaro reyting agentliklari sanalmish «Moody's» va «Fitch Ratings» tomonidan qatorasiga bir necha yillardan beri «Asaka» bank faoliyatiga yuqori reyting baholari berilmoqda, bank faoliyati "Barqaror" deb tan olinmoqda. Jahonning rivojlangan davlatlarida banklarning reyting ko'rsatkichlari darajasi pasayotgan bir paytda xalqaro reyting agentliklari tomonidan O'zbekiston bank tizimiga yuqori reyting baholarini berilishi, muhtaram Prezidentimizning bank tizimiga

bo'lgan e'tibori evaziga bank tizimiga bo'lgan ishonchni oshib borayotganligidan, bank tizimining barqarorligidan dalolat beradi.


Xozirgi kunda «Asaka» bank 26 filiali, 90 mini banki va 427 ta jamg'arma, maxsus va sayyor kassalari orqali ho'jalik yurituvchi subyektlar va aholiga barcha turdagi bank xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda. Bunda «Mijoz bank uchun emas, bank mijoz uchun» degan eng asosiy tamoyil dasturi amal bo'lib xizmat qilmoqda.

Bank tomonidan muntazam ravishda mijozlar bazasini kengaytirish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Darhaqiqat, bugungi kunda bank mijozlari soni 1,5 mln. nafardan oshdi.


Bank jami aktivlari 2015 yil birinchi yarmi davomida 1 470,1 mlrd.so'mga o'sdi va 2015 yil 1 iyul holatiga 6 187,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.



Bank jami kapitalini 115,7 mlrd.so'mga o'sishiga erishildi va 874,9 mlrd.so'mga yetkazildi.



2015 yil 1 iyul holatiga respublikamiz iqtisodiyotining turli sohalariga yo'naltirilgan bank kredit qo'yilmalari hajmi 2 882,4 mlrd.so'mni tashkil qildi. Kredit qo'yilmalarining asosiy qismini uzoq muddatli kreditlar tashkil etdi.



«Asaka» bank tashkil etilganidan boshlab asosiy e'tiborni respublikamiz iqtisodiyotining muhim tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan investitsion loyihalarni moliyalashtirishga qaratib kelmoqda. Jumladan, Bank tomonidan avtomobilsozlik, tog'-kon, neft-gaz, kimyo, energetika, yengil, oziq-ovqat, farmatsevtika sanoati, transport, qurilish va boshqa tarmoqlarning investitsion loyihalari faol moliyalashtirib kelinmoqda.


Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 28 iyuldagi «Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo'naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko'paytirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida investitsion loyihalarni moliyalashtirish uchun 446,0 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Buning natijasida yangi korxonalar barpo qilinib, ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi.

Shuningdek, «Asaka» bank tomonidan Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida aholini uy-joy bilan ta'minlash maqsadida, uy-joy qurilishi uchun pudratchi tashkilotlarga kredit ajratish bo'yicha faol ishlar olib borilmoqda. Ushbu maqsadlarga bank tomonidan 209,5 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Bugungi kunga kelib «Asaka» bank kreditlari hisobiga 52 ta ko'p qavatli turar joy binolari qurib bitkazildi va 1572 xonadon barpo etildi. Buning natijasida shuncha oila barcha qulayliklarga ega, shinam uy-joy bilan ta'minlandi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlarda ham «Asaka» bankning hissasi oshib bormoqda.

Jumladan, Bank tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va ularga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari turlarini kengaytirish, sifatini yanada yaxshilash va kredit mablag'lari hajmini ko'paytirish

bo'yicha ishlarni faol davom ettirib, 2015 yil birinchi yarmi davomida barcha moliyalash manbalari hisobidan kichik biznes subyektlariga 647,2 mlrd.so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.



Shu jumladan, ayollar tadbirkorligini tashkil etish va rivojlantirishga 57,6 mlrd.so'm, xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun 96,3 mlrd.so'm, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirish uchun 5,9 mlrd.so'm, ta'lim muassasalari bitiruvchilariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishlari uchun 5,6 mlrd.so'm, imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi manbalari hisobidan 2,8 mlrd.so'm, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarga 292,3 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi.

Buning natijasida respublikamiz hududlarida ko'plab yangi ish o'rinlari yaratildi. Bu esa respublikamizning barcha hududlarida, ayniqsa mehnat resurslari zich joylashgan hududlarda xizmat ko'rsatish muassasalari tashkil etish, mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish salohiyatini oshirib, respublikamiz aholisini arzon va sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashni yaxshilashga, ayollar tadbirkorligi, kasanachilik va hunarmandchilikni rivojlantirishga hamda yangi ish o'rinlari yaratishga imkoniyat yaratdi.


Shuningdek, bank tomonidan qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlash, qishloq xo'jalik korxonalariga moliyaviy ko'mak berish orqali agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida va samarali o'tkazish uchun 42,1 mlrd.so'm miqdorida kreditlar ajratildi. Ushbu mablag'lar qishloq xo'jaligini turli rusumdagi yuqori unumli zamonaviy qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta va g'alla xom ashyosini yetishtirish, chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish va boshqa maqsadlar uchun yo'naltirildi.

Bank tomonidan qishloq xo'jalik korxonalariga moddiy-texnik bazasini yaxshilash uchun kreditlar ajratilishi va ulardan samarali foydalanishi, ishlarning maqsadga muvofiq tashkil qilinishi natijasida fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligiga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi "Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash borasida «Asaka» bank tomonidan muhim yutuqlarga erishildi. Jumladan, Bank balansiga qabul qilingan bankrot korxonalarining 46 tasi yangi investorlarga sotildi. Bankrot korxonalar negizida bankning 14 ta sho'ba korxonasi tashkil qilindi. Tashkil etilgan bank korxonalariga jami 61,7 mlrd.so'm miqdorida investitsiyalar kiritildi. Natijada 4 216 nafar yangi ish o'rinlari yaratildi. Ishlab chiqarish faoliyati tiklangan bankrot korxonalarda jami 423,3 mlrd.so'm miqdorida mahsulotlar ishlab chiqarildi va 56,2 mln.AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlar eksport qilindi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 26 noyabrdagi «2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq hamda aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirish, mamlakat iqtisodiyotini jadal rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish uchun investitsiya resurslarining g'oyat muhim manbai sifatida aholining erkin pul mablag'larini tijorat banklari omonatlariga jalb etishni yanada rag'batlantirish maqsadida «Asaka» bank tomonidan faol ishlar olib borilmoqda. Jumladan, hozirgi kunda 40dan ortiq turdagi milliy va xorijiy valyutadagi omonatlar joriy qilingan bo'lib, omonatlarni bankning barcha filiallarida rasmiylashtirish mumkin. Omonatlarga qo'yilgan mablag'lar belgilangan muddatlarda omonatchilarning birinchi talablariga binoan naqd pulda ta'minlab berilmoqda.

Bank tomonidan naqd pul mablag'larining bankdan tashqari aylanmasini keskin qisqartirish va aholining bo'sh pul mablag'larini omonatlarga jalb qilish bo'yicha olib borilgan faol ishlar natijasida aholi omonatlari qoldig'i 2015 yil 1 iyul holatiga 73,9 mlrd.so'mga o'sdi va so'm ekvivalentida 542,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Omonatchilar soni 105,0 ming nafarga o'sdi va 1 504,0 ming nafardan oshdi. Bu esa aholining Bankga bo'lgan ishonchini oshganligidan dalolat beradi va «Asaka» bank tizimida bu sohada olib borilayotgan ishlarning to'g'ri yo'lga qo'yilganligidan dalolat bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 yil 19 apreldagi "Bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda hisob-kitob tizimini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida plastik kartochkalar asosida hisob-kitob qilish tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ham faol ishlar olib borilmoqda. Bank tomonidan 2015 yil 1 iyul holatiga 1524,7 ming donadan ortiq plastik kartochkalar muomalaga chiqarilib, ularning soni 151,7 ming donaga o'sdi. 10049 ta terminal, 27 ta bankomat va 46 ta infokiosk o'rnatildi. 8725 ta korxonalar va tashkilotlarda "ish haqi" loyihalari joriy etildi.



Plastik kartochkalar orqali amalga oshirilayotgan naqd pulsiz xisob-kitoblar hajmi ham kengaymoqda. 2015 yil birinchi yarmi davomida savdo aylanmalari miqdori 803,7 mlrd. so'mni tashkil qildi.

«Asaka» bankda o'rnatilgan barcha infokiosk va bankomatlar UZ PAYNET to'lov tizimiga ulangan bo'lib, mijozlar plastik kartochka orqali barcha kommunal xizmatlar bo'yicha va uyali aloqa uchun to'lovlarni amalga oshirish, plastik kartochka egalariga, qaysi bank emitenti bo'lishidan qat'iy nazar, o'z hisob raqamidagi pul mablag'lari holati bo'yicha ma'lumotlarni olish, pul mablag'larini plastik kartochkalarga yuklab olish imkoniyatiga egadirlar.

"Xalqaro plastik kartochkalar ("MasterCard") orqali naqd pulsiz hisob-kitoblarning avtomatlashtirilgan tizimi"ni kengaytirish bo'yicha ishlar davom ettirilmoqda. Bank tomonidan chiqarilgan xalqaro plastik kartochkalar soni 138,4 ming donadan oshdi.

Muxtasar qilib aytganda, «Asaka» bank jamoasi joriy yilda mijozlarga yuqori sifatli bank xizmatlarini ko'rsatish, iqtisodiyotning real sektori korxonalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash, mahalliy xom ashyodan import o'rnini bosuvchi va

eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga mo'ljallangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha faol ishlar olib borishni maqsad qilgan.